

## YANGILANGAN KONSTITUTSIYA- MENING KONSTITUTSIYAM

Oralbaeva Iroda Tenelbay qizi

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali. Maktabgacha va boshlang'ich ta'limga jismoniy tarbiya va sport ta'lim yo'naliши 3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12573100>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining vujudga kelishi va rivojlanish yo'li. Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati, Yangilangan Konstitutsiyaning ustunligi, ahamiyati, qonun ustuvorligi, inson huquqlari va Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning konstitutsiya asosida olib borayotgan oqilona siyosatining jamiyatdagi natijasi haqida bayon etiladi.

**Kalit so'zlar:** Konstitutsiya, demokratik mamlakat, inson huquqlari, korrupsiya, qonun ustuvorligi.

## UPDATED CONSTITUTION - MY CONSTITUTION

**Abstract:** In this article, the way of the creation and development of the Constitution of the Republic of Uzbekistan. The essence of the Constitution, the supremacy, importance, rule of law, human rights of the Updated Constitution, and the result of the rational policy of President Shavkat Mirziyoyev Miromonovich based on the constitution in the society will be described.

**Key words:** Constitution, democratic country, human rights, corruption, rule of law.

## ОБНОВЛЕННАЯ КОНСТИТУЦИЯ - МОЯ КОНСТИТУЦИЯ

**Аннотация.** В данной статье рассмотрен путь создания и развития Конституции Республики Узбекистан. Будет описана сущность Конституции, верховенство, значение, верховенство закона, права человека Обновленной Конституции, а также результатом рациональной политики Президента Шавката Мирзиёева Миромоновича, основанной на Конституции, в обществе.

**Ключевые слова:** Конституция, демократическая страна, права человека, коррупция, верховенство закона.

Konstitutsiyamiz mamlakatimizning bosh huquqiy hujjati, hayotimizning mezonidir. Jamiyatning har bir jabhasi, odamlarning kundalik hayoti bosh Qomusimizda belgilangan me'yorlar, normalar bilan chambarchas bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilishi tarixi haqida so'z yuritishdan oldin "Konstitutsiya nima?" degan savolga javob berish maqsadga muvofiqdir. Konstitutsiya – bu bizning O'zbekiston xalqining assosiy qonuni bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

xalqimizning mustaqillik sari uzoq va mashaqqatli yo‘lidagi izlanishlar natijasidir. Konstitutsiya so‘zi lotincha “constitution” –tuzilish, tuzuk so‘zlaridan olingen. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini ularning vakolati, shakllanish tarkibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va shaxsning o‘zaro munosabatlarini, shuningdek, sud tizimini hamda davlat va jamiyatning o‘zaro munosabatlarini belgilab beradi. “Konstitutsiya” atamasi Qadimgi Rimdayoq ma’lum bo‘lgan (imperator Konstitutsiyasi deb atalgan qonun). Amir Temur “Tuzuklar”i Sharq va Osiyo mamlakatlari sivilizatsiyasiga xos alohida shakldagi konstitutsiyaviy hujjat xususiyatiga ega bo‘lgan. U shariat qonunlari bilan bir qatorda Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari taqdiriga kuchli ta’sir o‘tkazgan. Asosiy Qonunimiz yaratilishining murakkab va muhim, ayni chog‘da sharafli solnomasiga nazar solar ekanmiz, hech shubhasiz, O‘zbekiston Konstitutsiyasi xalqimizning mustaqillik sari uzoq yo‘ldagi izlanishlari natijasi ekaniga ishonch hosil qilamiz. Avvalambor, konstitutsiyaviy “bino”ni qurishda uch ming yillik milliy davlatchilik tajribasiga tayanilgan. Bugungi O‘zbekiston qadimgi Xorazm va So‘g‘diyona, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Amir Temur va Temuriylar, o‘zbek xonliklari, ma’rifatparvar ajdodlarimiz, xalqimizning tarixiy an’analari va uning mustaqil davlat haqidagi ko‘p asrli orzusini mujassam etgan. Qolaversa, manfaatlarimiz va intilishlarimizdan kelib chiqqan holda, Asosiy Qonunimiz Sharq va G‘arb, Janub va Shimolning 97 ta mamlakati to‘plagan ilg‘or konstitutsiyaviy tajribani hisobga olib yaratilgan.

Mamlakatda demokratik tamoyillar qaror topganligining muhim xususiyatlaridan biri jamiyatda ko‘p partiyaviylik tizimining mavjudligi bilan o‘lchanadi. Yurtimizda bu tamoyil, eng avvalo, konstitutsiyamizda mustahkamlangan. Bugungi kunda siyosiy partiyalar konstitutsiyada belgilangan huquqlaridan foydalangan holda, mamlakat taraqqiyotida faol ishtirok etishi, jamiyatni yanada rivojlantirish uchun o‘z dasturiy g‘oyalaridan kelib chiqib, muqobil takliflar berishi, o‘z elektorati manfaatlarini samarali himoya qilish yuzasidan yanada tashabbuskor bo‘lishi talab etiladi. Bu esa, yangi demokratik huquqiy davlatni shakllantirish hamda fuqarolik jamiyatini qaror toptirish yo‘lida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar samaradorligini ta’minalashga xizmat qiladi.

Qonun ustuvor bo‘lgan davlatda rivojlanish, yuksalish bo‘ladi. Uning ustuvorligini ta’minalash esa yetakchining mahorati va jamiyatning huquqiy ongiga bog‘liqdir. Bugungi kunda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev olib borayotgan siyosatlarida aynan shu jarayonni ko‘rishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi konstitutsiyasi ijtimoiyadolat, erkinlik va tenglik tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, inson va davlatning huquqiy holatini belgilashda inson huquqlari ustuvorligi, davlat bilan fuqaroning o‘zaro siyosiy-huquqiy mas’ulligi prinsiplariga asoslanuvchi tamomila yangi konsepsiya tayangan bo‘lib, unda ilk bor inson

huquqlari kategoriyasi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab qo‘yilgan. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, yurtimiz mustaqil taraqqiyot yo‘lida dunyo jamoatchiligi tan olgan olamshumul yutuq va marralarni zabit etdi. Milliy iqtisodiyotimiz izchil rivojlanmoqda, uning barqaror o‘sish sur’atlari, aholi farovonligi yil sayin yuksalib bormoqda. Bir so‘z bilan aytganda, jahon hamjamiyatida mamlakatimiz obro‘-e’tiborining tobora yuksalib borayotgani zamirida, eng avvalo yangi tahrirdagi Konstitutsiya va uning insonparvarlik g‘oyalarini o‘zida to‘la mujassam etgan me’yorlari yotibdi. O‘zbekiston taraqqiyotining muayyan bosqichlariga hamohang tarzda konstitutsiyamizga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Bu islohotlar zamirida jamiyat hayotini yanada demokratlashtirish asosiy maqsad qilib olindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev konstitutsiyamiz haqidagi “Konstitutsiya har bir fuqaroning ongi va qalbidan chuqur joy olgan, ularni huquq va erkinliklarini to‘liq kafolatlaydigan haqiqiy hayot qomusiga aylanmoq lozim” degan so‘zları bugun dasturil amal qilib olindi. Davlat boshqaruvini demokratlashtirish, mazkur jarayonlarda fuqarolarning konstitutsion huquqlarini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan mazkur islohotlar pirovardida fuqarolarimizning huquq va erkinliklari kafolatlarini yanada mustahkamlamoqda.

Jumladan, yangi Konstitutsiyamizning 54-moddasida “Insonning huquq va erkinliklarini ta’minalash davlatning oliy maqsadidir. Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minalaydi” deb ko‘rsatib o‘tilganligidan inson qadri uchun g‘oyasi mujassam ekanligini ko‘rish mumkin.

Bugungi kunda yoshlarimizning juda ko‘pchiligi o‘qimishli, oliy ma’lumotli bo‘lib bormoqda, bu esa kelajak sari qo‘yilayotgan mustahkam poydevordir. Ko‘pchilik “oliy ma’lumotli mutaxassislar ko‘payib ketmoqda, erta ularga ish yo‘q bekorga mablag‘ sarflab o‘qib ertaga ishlay olmasa nimaga kerak” degan noto‘g‘ri qarashlar ham mavjuddir. Lekin hayotimizda bilimli, huquqiy madaniyati yuqori bo‘lgan yoshlar ko‘paymoqda. Ular hech bo‘limganda o‘zining huquq va burchlarini biladi.

“O‘zbekiston - yoshlar mamlakati”. Shu bois, yoshlar ta’lim-tarbiyasi va kamolotiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Eng avvalo, bu sohadagi ishlarni tashkil etishning huquqiy asoslari takomillashtirilib borilmoqda.

Yangi Qomusimizning 79-moddasida “Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minalaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi. Davlat yoshlarning intelektual, ijodiy, jismoniy va ahloqiy jihatdan shakllanishi va rivojlanishi uchun, ularni ta’lim olishiga, sog‘lig‘ini saqlashda, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi” deyilganining zamirida yoshlarning huquqiy va ijtimoiy muhofaza qilish,

iste'dodini qo'llab-quvatlash turganligiga amin bo'lamiz.

Yangi Konstitutsiyada jamiyat taraqqiyotiga turtki beruvchi g'oyalar o'z ifodasini topadi, kelajak avlodlarga ozod va obod vatan qoldirish, ularning baxt-u kamolini ko'rishdek orzu-havaslar ifodasini topgan bo'lib unda jamiki ne'matlar orasida eng ulug' – "Inson" degan fikr ilgari surilgan va shu asosda fuqaro-jamiyat-davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatning oqilona huquqiy yechimi belgilab berilgan. Konstitutsiyani puxta o'zlashtirgan shaxs kuchli, mukammal, ertangi hayotga ishonchi mustahkam bo'ladi. Konstitutsiya – tarixiy axamiyati beqiyos hujjatdir. Unda tarixiylik zamonaviylik bilan uyg'unlashib jahonning ijtimoiy, siyosiy, falsafiy va huquqiy tafakkuri sohasida erishilgan yutuqlari mujassamlashgan. Har bir shaxs vatanimiz rivojiga munosib hissasini qo'shishi lozimdir.

#### REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi –2023
2. O'z.Respublikasi Prezidentining farmoni va qarorlari. Prezidentimiz ma'ruzlari.
3. O'z ME. Birinchi jild. Toshkent – 2000-yil.
4. <https://constitution.uz>.
5. <https://lex.uz>.
6. <https://uz.m.wikipedia.org>.
7. <https://www.uzairways.com>